



## ARTICLE INFO

Received: 21<sup>th</sup> January 2023  
Accepted: 30<sup>th</sup> January 2023  
Online: 31<sup>th</sup> January 2023

## KEY WORDS

## OTLASHGAN SIFATLAR TIL HODISASI SIFATIDA

<sup>1</sup>Komila Anvarovna Gayubova

Katta o'qituvchi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,

<sup>2</sup>Nargiza Davlatovna Yulanova

Katta o'qituvchi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7592976>

## ABSTRACT

*Otlashgan sifatlarni otlar kabi kelishik va egalik qo'shimchalari bilan turlanadi hamda gapda ega, qaratqichli aniqlovchi, to'ldiruvchi bo'lib kela oladi. Masalan, Yaxshi topib gapiradi, yomon- qopib. Yomonning bir qiligi ortiq. Qozonga yaqinlashsang, qorasi yuqar, yomonga yaqinlashsang-balosi. Yaxshidan ot qoladi, yomondan-dod.*

Otlashgan sifatlarni otlar kabi kelishik va egalik qo'shimchalari bilan turlanadi hamda gapda ega, qaratqichli aniqlovchi, to'ldiruvchi bo'lib kela oladi. Masalan, *Yaxshi topib gapiradi, yomon- qopib. Yomonning bir qiligi ortiq. Qozonga yaqinlashsang, qorasi yuqar, yomonga yaqinlashsang-balosi. Yaxshidan ot qoladi, yomondan-dod.*

Birinchi gapda bosh kelishikdagi yaxshi, yomon so'zlari ega, ikkinchi gapda qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgan *yomon* so'zi qaratqichli aniqlovchi, uchinchi gapda jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan *yomon* so'zi to'ldiruvchi, to'rtinchi gapda esa chiqish kelishigi qo'shimchasini olgan *yaxshi, yomon* so'zlari to'ldiruvchi bo'lib kelgan.

Keltirilgan misollarda *yaxshi, yomon* sifatlari otlashgan holda qo'llanib, otlar kabi sintaktik vazifani o'tagan.

O'zbek tilida mazkur hodisa kam o'rganilgan. Bu sohada G'Abdurahmanovning dissertatsiyasi hamda S.Obloqulovning maqolasi nazariy jihatdan diqqatga sazovor ishlardan sanaladi. Bu ishlarda sifatlarni otlashganda, aniqlanmish otning tushib qolishi, otlashgan sifatlarning ot turkumiga ko'chishi kabi masalalar ko'tariladi. Lekin bu masalalar nazariy jihatdan yetarlicha hal etilmaydi. Natijada otlashish hodisasi bog'liq bo'lgan qator masalalar muammoligicha qoladi: 1) sifatlarni otlashganda aniqlanmish ot tushib qoladimi? 2) otlashgan sifatlarni ot turkumiga ko'chadimi? 3) otlashish hodisasi birlamchimi, sifatlashish hodisasi birlamchimi?

Birinchi masala tilshunoslikdagi munozarali masalalardan sanaladi.

Tushish hodisasining bordek tuyulishiga yana bir sabab shuki, otlashish hodisasi nazariy jihatdan tahlil etila boshlagan paytlarda sifatlarni ot turkumiga oid so'zlarning bir qismi sifatlashish jarayonini tugallagan bo'lsa, yana bir qismi bu jarayonni boshdan kechirayotgan edi. Boshqacha aytganda, *ishchi* (rabochiy) so'zi bir paytning o'zida ham ot kabi, ham sifatlarni ot turkumiga oid so'z ekanini aniqlash masalasini kun tartibiga qo'yadi. Masalan, *rabochiy* (ishchi) so'zi tashqi tomondan sifatlarni ot turkumiga oid so'z shaklida, lekin asosan ot kabi qo'llanmoqda. Bu qarama-



qarshi hodisa sifat turkumidagi soʻzning ot turkumiga koʻchishi masalasini, yaʼni otlash hodisasi haqidagi taʼlimotni yuzaga keltiradi.

Tahlil etilayotgan soʻzning taraqqiyot yoʻli qay tomonga: ot turkumi tomonga yoki sifat turkumi tomonga borayotganini aniqlash lozim boʻlib qoladi. Tahlil etilayotgan soʻz shakl jihatidan sifat turkumiga oid boʻlgani uchun sifat turkumiga soʻzning sifatlashishi haqida fikr yuritish mantiqiy jihatdan gʻalizdek tuyuladi. Natijada bu soʻzlarning ot turkumi tomon harakati haqida notoʻgʻri qarash paydo boʻladi.

*Ishchi odam, ishchi yigit, ishchi qiz, ishchi ayol, ishchi chol* birikmalaridagi *ishchi* soʻzini otlashgan holga keltirish mumkinmi? Mumkin emas. Birinchidan, nutq jarayonida otlashgan *ishchi* soʻzini qoʻllash ehtiyoji tugʻilib qolganda, atributiv birikmalarda qatnashgan *ishchi* soʻzini aniqlanmishdan ajratib olib ishlatiladi deb tushunish kerak emas. Nutq jarayonida bunday “operatsiyalarga” vaqt ham yetishmaydi. Ikkinchidan, otlashgan *ishchi* soʻzining maʼnosi *ishchi* soʻzi aniqlovchi boʻlib qatnashgan atributiv birikmalarning maʼnolariga aynan mos emas. Otlashgan *ishchi* soʻzida “odam” maʼnosi juda umumiy va ancha xira ifodalangan. Birikmalardagi *odam, yigit, qiz, ayol, chol* soʻzlari esa *ishchi* belgisiga ega shaxslarni konkretlashtirib ifodalashga xizmat qilgan.

Aniqlanmish bevosita shaxsni anglatmaydigan soʻzlar bilan ifodalangan birikmalardagi aniqlanmish otning tushmasligi quyidagi misollarda yanada ochiq koʻrinadi. Agar *ishchi kadrlar, ishchi deputatlar, ishchi delegatlar, ishchi muxbirlar, ishchi kollektivlar* kabi birikmalardagi aniqlanmish otlarni tushirib qoldiradigan boʻlsak, *ishchi* soʻzining oʻzidan *kadr, delogat, deputat, kollektiv, muxbir* kabi soʻzlarning maʼnolari umuman anglashilmaydi. Shunday ekan, bu birikmalardani aniqlanmish otlarni tushirib qoldirib bu birikmalar oʻrniga *ishchi* soʻzining oʻzini qoʻllash ham mumkin emas.

Til taraqqiyotining nisbatan keyingi davrlarida paydo boʻlgan *ishchi mollar, ishchi variant, ishchi kuch* kabi birikmalar tarkibidagi aniqlanmish otlarni tushirish mumkin emasligi hech qanday izohsiz ham aniq koʻrinib turadi. Bu birikmalar anglatadigan maʼnolar bilan otlashgan *ishchi* soʻzi anglatadigan maʼno oʻrtasida juda katta farq bor. Bu birikmalar oʻrniga otlashgan *ishchi* soʻzini ishlatish mumkin emas.

Ikkinchi masala ham hali tilshunoslikda yetarlicha hal etilgani yoʻq. Otlashish hodisasi haqida fikr yuritgan tilshunoslar asosan otlashgan sifatlar ot vazifasida uzoq vaqt qoʻllanishi natijasida ot turkumiga butunlay oʻtib ketadi, degan fikrni ilgari surishadi. Jumladan, rus tilshunosi A.P.Peshkovskiy shunday yozadi: “Sifatlarning otga koʻchishi nisbatan keyingi hodisadir. Koʻpgina soʻzlar hozir sifatlardan otlarga tomon ketayotgan yoʻlda turipti. Baʼzilari bu yoʻlning katta qismini bosib oʻtgan. Boshqalari endi yoʻlga chiqqan. Baʼzilari esa yarim yoʻlda turipti. *Rabochiy, masterovoy, bolnoy, priyezjiy, stolovaya, morojenoye* kabi soʻzlar bu yoʻlning katta qismini bosib oʻtgan”. Oʻzbek tilshunosligida ham otlashgan sifatlar otga koʻchishi mumkinligi haqida fikrlar mavjud.

Til taraqqiyoti natijasida *ishchi* soʻzining qoʻllanish doirasi ham kengaya boradi. Hozir *ishchi* soʻzi otlashgan holda ham, atributiv holda ham keng qoʻllanmoqda. *Ishchi* soʻzining atributiv holda qoʻllanish jarayonini quyidagicha etaplarga boʻlish mumkin: 1) avvalo shaxsni bildiruvchi soʻzlarning aniqlovchisi boʻlib qoʻllana boshlagan: *ishchi odam, ishchi kishi, ishchi yigit, ishchi qiz, ishchi ayol, ishchi chol* kabi; 2) undan keyin kishilar qatnashishi mumkin boʻlgan uyushma, birlashma nomlarini anglatuvchi soʻzlarning aniqlovchisi boʻlib qoʻllana



boshlagan: *ishchi kollektivlar, ishchi partiyalar* kabi; 3) va nihoyat, shaxs tushunchasi aralashmagan soʻzlarning ham aniqlovchisi boʻlib qoʻllana boshlagan: *ishchi mollar, ishchi variant* kabi. Sifat turkumiga oid soʻzlar hayotining birinchi etapi ularning otlashgan holda qoʻllanish davrini aks ettiradi. Bu davr til tarixida eng uzoq davom etgan davrlardan sanaladi. U sifat turkumiga oid soʻzlarning paydo boʻlgan paytidan boshlanib, sifatlar atributiv holda qoʻllana boshlangan paytlarda ham, sifatlik huquqini toʻla egallagandan keyin ham davom etaveradi.

Sifat turkumiga oid soʻzlar hayotining ikkinchi davrini sifatlashish, yaʼni sifatning aniqlovchi boʻlib qoʻllana boshlashidan keyingi davr tashkil etadi. Bu davrda sifatlar soʻz turkumi sifatida shakllanadi va, oʻz navbatida, tilshunoslar tomonidan mustaqil soʻz turkumi sifatida ajratila boshlaydi.

Sifatlardagi otlashish va sifatlashish maʼlum darajada bir-biriga zid boʻlgan hodisalardir. Otlashish uzoq yillar davomida sifatning mustaqilligini yashirib kelgan boʻlsa, sifatlashish sifatlarga oʻzligini tanitdi va mustaqil soʻz turkumi darajasiga olib chiqdi.

Otlashish ham, sifatlashish ham til hodisasi sifatida tilning ijtimoiy vazifa bajarishida bab-baravar xizmat qiladi. Bu ikki til hodisasi fikr ifodalashda bir-biridan mustaqil ravishda amal qiladi. Otlashish fikrni qisqa va umumlashtirib berishda xizmat qilsa, sifatlashish fikrini har tomonlama mukammal va konkret ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sifatlardagi sifatlashish hodisasi rivojlanib, oʻzining eng yuqori bosqichiga erishgan hollarda ham, yaʼni sifat turkumiga oʻtib olgandan keyin ham otlashish hodisasi oʻzining tildagi hayotiy kuchini saqlab qoladi.

## References:

1. Abduraxmonov.F.Tarixiy sintaksis.- T,1994 yil.
2. Norimov.A, Maxmudov.N. va boshqalar.Oʻzbek tilining sintaktikasi.-T.1992 yil.